

SAMARQAND SHAHRI INSON IJTIMOIIY XIZMATLAR MARKAZIDA BOLALARNI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH BO'YCHA XIZMAT TURLARI VA BAJARILAYOTGAN ISHLAR SAMARADORLIGI

Xaydarov Shavkatjon Berdiyov o'g'li

Samarqand Davlat Pedagogika Universiteti, magistr

xaydarovshavkatjon96@gmail.com

+998944779930

Annotasiya: *O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etilgandan buyon yetim va ota-onasi ota-onalik huquqidan mahrum etilgan yoki vasiylikka va homiylikka berilgan bolalar bilan ishlar ularga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish agentlik tasarrufiga o'tkazildi. Ushbu tadqiqot ishi orqali ularga biriktirilayotgan xizmatlar va bajarilayotgan ishlar samaradorligi muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy himoya, vasiylik, homiylik, ijtimoiy xizmatlar, yetim bolalar, ota-onasi ota-onalik huquqidan mahrum etilgan bolalar.*

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevni 2023-yil 1-iyundagi "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida" farmoniga muvofiq Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi.[1.1] 2024-yil 1-yanvardan boshlab Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidan bolalar uylari, maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidan mehribonlik uylari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimidan voyaga yetmaganlar bilan ishlash sektori hamda oilaviy bolalar uylari bilan ishlash ijtimoiy himoya milliy agentligi tasarrufiga o'tkazilgan. Ijtimoiy himoya milliy agentligi bu turdagi bolalar uchun xizmatlarni respublikamizda mavjud bo'lgan barcha shahar va tumanlardagi "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari va mahallarda kompleks xizmat ko'rsatuvchi ijtimoiy hodisalar orqali amalga oshirib kelmoqda. Bolalarga nisbatan yordam va xizmatlarga to'xtaladigan bo'lsak, "Ijtimoiy himoya yagona reystri"ga kiritilgan oilalar farzandlari uchun nafaqa va moddiy yordamlar ko'rsatilib kelmoqda. Jumladan, birgina Samarqand shahar hududida bolalar nafaqasi oladigan oilalar soni iyul oyida olib borilgan hisob kitoblarga ko'ra 6530 ta oilani tashkil qiladi.[2] Dunyoning ko'plab davlatlarida bolalar nafaqasi berilmaydi. Masalan yalpi ichki mahsulotlari bo'yicha eng yetakchi davlat hisoblangan Amerika Qo'shma Shtatlarida bolalar nafaqasi mavjud emas faqatgina "Child Tax Credit" ya'ni bolasi bor oilalar uchun soliq to'lovlaridan chegirmalar qilinishi mumkin. [3]

Bundan tashqari, ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan bolalarga nisbatan zo'ravonlikni oldini olish dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish vazifalari asosiy vazifa etib belgilab qo'yilgan. Bunga ko'ra "Bolalarni barcha turdagi

zo'ravonliklardan himoya qilish“ haqidagi Nizomga loyihasi ishlab chiqildi. Zero-tolerance tamoyillariga ko'ra ishlab chiqilgan bu Nizomga ko'ra zo'rovonlikka duch kelgan yoki xaft ostidagi bolalar uchun foster (vasiy oila) xizmati joriy etilgan, psixologik va ijtimoiy reabilitatsiya dasturlari joriy etilgan va zo'ravonlikni qayd etadigan raqamli elektron tizimlar joriy etilgan. Inson markazlarida ichki ishlar organlari bilan hamkorlikda zo'ravonlikni holatlari 1 kun ichida o'rganilib chiqishi shart hisoblanadi va xafa darajasi yuqori deb baholangan hollarda bolalarni darhol himoyalash uchun tartiblar ishlab chiqiladi.[4.2]

Vasiylik va homiylik tizimi takomillashtirilayapdi, farzand asrab olish tizimi bilan bir qatorda takomillashib kelmoqda. 2024-yil fuqarolik ishlari bo'yicha sud 2701 ta farzandlarga olish ishlarini ko'rib chiqqan va shulardan 2543 tasi da'vo arizasi qanoatlantirgan va rasmiy oilalarga berilgan. Vasiylik va homiylik tizimi ancha soddalashtirilgan endilikda ota-onasi vafot etgan yoki 3 oydan ziyod muddatga chet elga ketgan oilalarda farzandlarga vasiylik shahar yoki tuman Inson markazlarida tomonidan belgilanib berilayapdi “Bolalarni ijtimoiy himoya qilish shubalari“ orqali.[5.3] 2024-yilni o'zidan 400 dan ziyod bola vasiylik va homiylik belgilangan Samarqand viloyatida.[8] Bular yurtimizdagi bolalarni qarovsiz qolib ketmasligi uchun bajarilayotgan ishlarni yaqqol ifodalaydi.

Bundan tashqari alohida ta'limga ehtiyoji bor bolalar uchun ham keng imkoniyatlar yaratilib kelinmoqda, deyarli har oy Samarqand shahar “Inson ijtimoiy xizmatlarini markazi tomonidan tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyalar tashkil qilinib imkoniyati cheklangan bolalarni ehtiyojlari aniqlanib ularni ta'limga jalb qilib kelinmoqda. Inklyuziv ta'lim atamani ham ta'limga keng ommalashib kelmoqda, buni ma'nosi shundaki imkoniyati cheklangan yoki nogironligi bor bolalar ham alohida maktabga yoki uy ta'limida emas boshqa bolalar bilan bir qatorda oddiy maktablarda ta'lim olishiga keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Masalan, Samarqand shahrida 30 dan ortiq maktabda ko'zi ojiz yoki jismoniy nuqsoni bor bolalar uchun moslashtirilib chiqildi shu kungacha va bu ishlar jadal davom ettirilmoqda, sinfxonalar eshitish, ko'rish va harakatda cheklovi bor bolalar uchun moslashtirilmagan va panduslar, liftlar, maxsus xojatxonalar va eshiklarga tutqichlar o'rnatilmoqda.[6.1] Bulardan tashqari maxsus darsliklar va kerakli jihozlar bilan davlat tomonidan ta'minlanmoqda va ota-onalar bilan ishlash va psixologik yordamlar kuchaytirilmoqda. Bu hammasi nafaqat inson huquqlari balki bolalar huquqlarini yuksak darajada himoya etilganini ko'rishimiz mumkun.

Yetim va ota-onasi ota-onalik huquqlaridan mahrum qilingan bolalar uchun ham bir qator xizmatlar va erkinliklar berilayapdi. Masalan shu toifadagi bolalar uchun 18 yoshga to'lsa Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan uylari berilyapdi, har bir uy uchun davlat tomonidan 500 million so'm miqdorda mablag' ajratilyapdi, agar bola yolg'iz bo'lsa 25 mkvdan 50 mkvgacha 2 tasi turmush qursa 70 mkvgacha uy joylar

berilyapdi. Shahar hokimligi tomonidan uylari to'liq ta'mirlanib jihozlab berilyapdi.[7.7] 2025-yil Samarqand shahrida 19 ta bola uy joy bilan ta'minlandi shahar hududidan[8], bundan tashqari chin yetim bolalar 18 yoshga to'lsa to'garakka yoki chet tillarini o'rganishga bormoqchi bo'lsa yoki haydovchilar guvohnomasi uchun oqimoqchi bo'lsa "Mehr daftari" orqali o'qish xarajatlari to'liq to'lab berilyapdi. Samarqand shahrida "Shaffof" avtomaktabi bilan hamkorlikka bu jarayon davom etmoqda.[8] Bola o'g'il bola bo'lsa harbiy xizmat xarajatlari ham shu daftarning hisobidan to'lanib berilmoqda. Bu hammasidan ko'rinib turibdiki, nafaqat Samarqand shahrida balki butun respublikamiz bo'ylab barcha shahar va tumanlardagi "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari tomonidan bolalar huquqlari himoya qilinib ularni agar imkoniyati cheklangan bo'lsa barcha bilan bir xilda qilib jamiyatga kerakli farzand bo'lib yetishib chiqishi uchun har tomonlama sharoit yaratilib berilayotganini ko'rishimiz mumkun.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi prezidentining PQ-176-son qarori 01.06.2023
2. Samarqand shahar statistika qo'mitasi ma'lumotlariga 2025
3. <https://americancompass.org>
4. "Bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlarini aniqlash ,zo'ravonlik xavfi darajasini baholash, himoya rejasini ishlab chiqish hamda uning amalga oshirish tartibi to'g'risida" 440-sonli Vazirlar Mahkamasi qarori 14.06.2025
5. "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'ida mahrum bo'lgan Bolalarni joylashtirish shakllari bo'yicha ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 893-sonli Vazirlar Mahkamasi qarori 27.12.2024
6. "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida " PQ-4860-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 13.10.2020
7. "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'ida mahrum bo'lgan Bolalarni uy joy bilan ta'minlash tartibi to'g'risida" Vazirlar Mahkamasini 656-sonli qarori
8. IHMA ma'lumotlar.